

SAVOD O'RGATISH DARSLARIDA IZOHLI LUG'AT BILAN ISHLASHNING AFZALLIKLARI

Ergasheva Mohinur Turobjon qizi

Qo'qon DU Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 4-bosqich talabasi

Akbarova Munira Shavkatovna

Qo'qon DU assistent-o'qituvchisi, PhD

Annotatsiya: ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining lug'at boyligini oshirish va nutqni rivojlantirishdagi ahamiyati ko'rib chiqiladi. O'qituvchilar o'quvchilarga yangi so'zlar va iboralarni o'rgatishda alifbe davridan boshlab og'zaki va yozma ishlarni amalga oshirishlari zarurligi ta'kidlanadi. O'quvchilarning notanish so'zlarni o'zlashtirish jarayoni, ularning diqqatini lug'at ishlariga jalb qilish va qiziqtirish usullari ham muhokama qilinadi. Maqola, shuningdek, o'quvchilarda vatanparvarlik hissini tarbiyalash va ularning dunyoqarashini shakllantirishda lug'at ishining o'rnini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: lug'at boyligi, boshlang'ich sinf, o'qituvchi, og'zaki va yozma ishlar, notanish so'zlar, vatanparvarlik, dunyoqarash, o'qish jarayoni.

Abstract: This article examines the importance of increasing the vocabulary of primary school students and developing their speech. It emphasizes the need for teachers to carry out oral and written work when teaching students new words and phrases, starting from the alphabet period. The process of students' assimilation of unfamiliar words, methods of attracting their attention to vocabulary work and engaging them in it are also discussed. The article also shows the role of vocabulary work in fostering a sense of patriotism in students and forming their worldview.

Keywords: vocabulary, primary school, teacher, oral and written work, unfamiliar words, patriotism, worldview, learning process.

Bola birinchi sinfga kelgach, uning lug'at boyligi tezlik bilan oshib boradi. Chunki, uning uchun maktabdagi hamma narsa yangi va mana shu narsalarning nomini o'zlashtira boshlaydi. Boshlang'ich sinflarda lug'at ishini keng olib borish o'quvchilarning savodxonligini oshirish uchun, grammatik qonun-qoidalarni puxta bilish uchun, nutqni ostirish uchun va mantiqiy fikrlash malakasini egallashda muhim ahamiyatga egadir. Lug'at ishi bolalarni ko'p gapirtirish, o'qiganlarni ongli ravishda o'zlashtirish, shuningdek, sinonim, omonim, antonim jihatidan bir-biriga qarama-qarshi bo'lishini ayniqsa, bog'lanishli matnlarda so'zlarning yangi-yangi ma'no kasb etishini tushunishga o'rgatiladi. Dasturning bunday murakkab talablarini amalga oshirishda, o'quvchini juda yoshligidan boshlab so'z ustasi qilib yetishtirish uchun alifbe davrida olib boriladigan lug'at ishlarini o'qish darslarida murakkab tarzda

davom ettirish kerak. Bu esa o'qituvchidan yuksak mahorat talab qiladi. Boshlang'ich sinf o'quvchisi darslik bilan ishlar ekan, so'zlar ifoda va iboralar ustida ishlab berish orqali tizimli ravishda amalga oshiriladi.

Boshlang'ich sinf dasturida lug'at ishiga katta etibor beriladi. Chunonchi, o'quvchilarning har bir so'zini tushungan holda o'qishlari va o'z nutqlarida bu so'zni o'rinli ishlatishlari uchun birinchi sinfdanoq lug'at ustidagi ishlar avval og'zaki, o'quv yilining ikkinchi yarmidan boshlab esa, jadal ravishda yozma ifodalab borilishi kerak, o'quvchilar shakl jihatidan turlicha bo'lgan so'zlar bir xil yoki yaqin ma'no bildirishini ba'zi so'zlarning ma'no jihatidan bir-biriga qaramaqarshi bo'lishini, ayniqsa, bog'lanishli matnlarda so'zlarning yangi-yangi ma'no kasb etishini tushunishga o'rgatadi. Dasturning bunday murakkab talablarini amalga oshirishda o'quvchini juda yoshligidan boshlab so'z ustasi qilib etishtirish uchun, alifbe davrida olib boriladigan lug'at ishlarini o'qish darslarida murakkab tarzda davom ettirish kerak. Bu esa o'qituvchidan yuksak mahorat talab etadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchisi maktabga kelar ekan, u sinfdagi ko'pgina buyumlarni ko'radi, lekin ularning ayrimlarini nomi nima, qanday belgisi bor, turmushda qanday ahamiyat kasb etadi, ayrim narsalar hakida aniq tasavvurga ega bo'lmaydi. Bunday narsalar o'qituvchi tomonidan shu kunning talabi asosida asta sekinlik bilan o'rgatib boriladi. Og'zaki suhbat jarayonida tushunishi qiyin notanish so'zlar, so'z birikmalari tushuntirib beriladi. Masalan, o'qituvchi sinf xonasidagi stol, stul, parta, doska, shkaf va turli xil stendlarda aks etgan ko'rgazmalar orqali o'quvchilarga lug'at ustida ishlash imkoniyatlari yaratiladi. Shu bilan birga o'quvchilarni so'z boyligini oshirishda tarqatma materiallardan unumli foydalanish yangi uchraydigan so'zlarni lug'at daftariga yozib qo'yish, ma'nosini izohlash, yangi uchraydigan so'zlarga gaplar tuzish, ma'no va mohiyatini anglab yetish orqali o'quvchilarda lug'at boyligi oshib boradi. O'quvchi to'g'ri yozish malakasini egallagach, ularga o'rgangan predmetlarining nomlarini notanish va noaniq so'zlarni lug'at daftariga qayd ettirib boriladi. Kun sayin o'zbek tilimiz yangi-yangi so'z va iboralar bilan oz davrasini kengaytirib bormoqda. Shakli har-xil bolsa ham, ma'nosi bir-biriga yaqin so'zlarni katta, buyuk, ulug', qarama-qarshi ma'noli so'zlarni baland-past, kattak-ichik, yosh-qari, oq-qora, yaxshi-yomon, achchiq-shirin kabi so'zlardagi grammatik qonun-qoidalar bilan isbotlash uchun o'quvchilarga misollar topish o'rgatib boriladi. Biroq yuqoridagi fikrlar boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun tushunarli bo'lavermaydi. Shuning uchun lug'at ustida ishlash talab qilinadi.

O'qituvchi o'quvchilarning notanish so'zlarni qanday o'zlashtirib borayotganliklarini tekshirib turadi. O'quvchilarning notanish so'zlarni qanchalik o'zlashtirganliklari tekshirilganda, ularning diqqatini lug'at ustida ishlashga jalb etish va bu ishga ularni qiziqtirishga etibor beriladi. Matnda uchragan notanish so'zlar ishtirok etgan gaplardan ko'rgazmali qurol tayyorlanadi. Notanish so'zlarni faol lug'at

fondiga aylantirish uchun har xil izchil usullardan foydalaniladi.

Soʻzlarni yodlab bilib olish ham notanish soʻzni bilib olishga yordam beradi. Oʻquvchilar lugʻatining boyib borishini hisobga olish va baholab berish zarur. Lugʻat ishi orqali oʻqishning ongʻli bolishi va imloni oʻzlashtirishi taʼminlanadi, oʻquvchining dunyoqarashi shakllanadi, unda vatanparvarlik hissi tarbiyalanadi.

Alifbe davrida va undan keyingi oʻqish darslarida matndagi tushunilishi qiyin boʻlgan soʻzlarning maʼnosi tushuntiriladi. Matndagi obrazli ifodalar, qarama-qarshi maʼnoli, manosi bir biriga yaqin boʻlgan soʻzlar oʻquvchilarga toptiriladi va shu soʻzlardan oʻz nutqida foydalanishga oʻrgatiladi.

Xulosa

Maqolada boshlangʻich sinf oʻquvchilarining lugʻat boyligini oshirishda oʻqituvchilarning roli va metodlari muhim ahamiyatga ega ekanligi taʼkidlangan. Oʻquvchilarga yangi soʻzlarni oʻrgatish jarayonida ogʻzaki va yozma ifodalar, koʻrgazmalar va tarqatma materiallardan foydalanish zarurligi koʻrsatiladi. Oʻqituvchilar oʻquvchilarning notanish soʻzlarni oʻzlashtirish jarayonini nazorat qilib, ularni qiziqtirish va diqqatini jalb qilish uchun turli usullardan foydalanishlari kerak. Bu jarayon oʻquvchilarning savodxonligini, nutqini va dunyoqarashini rivojlantirishda muhim oʻrin tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. Oʻzbekiston Respublikasining “Taʼlim toʻgʻrisida”gi Qonuni. 2020-yil 23-sentyabr. OʻRQ-637-son. Xalq soʻzi. – Toshkent, 2020-yil 24-sentabr. No202 (7704). <https://lex.uz/ru/docs/-5013007>
2. Asaqarova M. Boshlangʻich sinf oʻquvchilarida oʻqish va matnni tushunish koʻnikmalarini rivojlantirish. – Namangan, 2020. – 137 b.
3. Aminova F. Oʻquvchilarni muloqot matni yaratishga oʻrgatishning didaktik asoslari. – Toshkent, 2007. – 130 b.
4. Sulton I. Adabiyot nazariyasi. - Toshkent: „Oʻqituvchi“, 1980. 245-bet
5. Homidiy H. va boshq. Adabiyotshunoslik terminlari lugʻati. — T.: „Oʻqituvchi“, 1967. 92-bet.
6. Pohl S. Longitudinal Multistage Testing. JEM. International Study Center, Lynch School of Education. – Boston College, Chestnut Hill, 2014. – p. 193.
7. Shavkatovna, A. M. (2023, November). BOSHLANG'ICH SINFLARDA ERTAKLARNING TURLARI BILAN ISHLASH. In *Proceedings of International Conference on Scientific Research in Natural and Social Sciences* (Vol. 2, No. 12, pp. 34-39).
8. Shavkatovna, A. M. (2023, November). BOSHLANG'ICH SINFLARDA O'QUVCHILARIDA KITOBXONLIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHDA ERTAKLARNING TUTGAN O'RNI. In *Proceedings of International Conference on*

Educational Discoveries and Humanities (Vol. 2, No. 12, pp. 158-162).

9. Shavkatovna, A. M. (2023, November). BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINI ERTAK JANRI BILAN TANISHTIRISH. In *Proceedings of International Conference on Scientific Research in Natural and Social Sciences* (Vol. 2, No. 12, pp. 29-33).

10. Shavkatovna, A. M. (2023). UNUSUAL COMPOUNDS AS A FACTOR INCREASING THE LINGUOPOETIC VALUE OF THE LITERARY TEXT. *JournalNX-A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal*, 9(5), 311-315.

11. Shavkatovna, A. M. (2023). Unusual Compounds: Oxymoron and Occasionalism. *Open Access Repository*, 9(7), 148-150.

12. Shavkatovna, A. M. (2023, November). OKSYUMORON–BADIY, LINGVOPOETIK VOSITA. In *Proceedings of International Conference on Educational Discoveries and Humanities* (Vol. 2, No. 12, pp. 153-157).

13. Shavkatovna, A. M. (2023, November). G'AYRIODATIY BIRIKMALAR VA ULARNING BADIY MATNDA QO'LLANILISHI. In *Proceedings of International Conference on Educational Discoveries and Humanities* (Vol. 2, No. 12, pp. 163-167).

14. Shavkatovna, A. M. (2023). UNUSUAL COMBINATIONS IN THE INTERPRETATION OF PROFESSOR NIZOMIDDIN MAHMUDOV. *Open Access Repository*, 9(11), 137-140.

15. Shavkatovna, A. M. (2023, November). SINESTETIK METAFORA VA GAYRIODATIY BIRIKMALAR. In *Proceedings of International Conference on Scientific Research in Natural and Social Sciences* (Vol. 2, No. 12, pp. 40-44).

16. Shavkatovna, A. M. (2023, November). SINESTEZIYA VA GAYRIODATIY BIRIKMALAR. In *Proceedings of International Conference on Educational Discoveries and Humanities* (Vol. 2, No. 12, pp. 148-152).

17. Shavkatovna, A. M. G'ayriodatiy birikmalar badiiy matnning lingvopoetik qiymatini oshiruvchi omil sifatida. Муаллим ҳам узликсиз билимлендирий. Илимий-методикалық журнал, 28-32